

## NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA INKLUYUZIV TA’LIMNING TA’SIRI

**Djurayeva Sohiba Barat qizi**

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o’qituvchisi

**Rustamova Ruxshona Bahodir qizi**

JDPU Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda

xorijiy ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Email: [rustamovar766@gmail.com](mailto:rustamovar766@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada inklyuziv ta’limni nogironligi bo‘lgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ta’siri bayon qilingan. Inklyuziv ta’lim modeli bolalarning o‘z-o‘ziga ishonchini oshirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va psixologik barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada inklyuziv ta’limning ijobjiy va salbiy jihatlari, mavjud muammolar hamda ularni hal qilish yo‘llari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, nogiron bolalar, psixologik rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, o‘z-o‘ziga ishonch, empatiya.

### **Abstract**

This article explores the impact of inclusive education on the psychological development of children with disabilities. The inclusive education model plays a significant role in boosting children's self-confidence, enhancing social adaptation, and strengthening psychological stability. The article analyzes the positive and negative aspects of inclusive education, existing challenges, and possible solutions to address them.

**Keywords:** inclusive education, children with disabilities, psychological development, social adaptation, self-confidence, empathy.

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается влияние инклюзивного образования на психологическое развитие детей с ограниченными возможностями. Модель инклюзивного образования играет важную роль в укреплении уверенности в себе, улучшении социальной адаптации и психологической устойчивости. В статье анализируются положительные и отрицательные стороны

инклюзивного образования, существующие проблемы и возможные пути их решения.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, психологическое развитие, социальная адаптация, уверенность в себе, эмпатия.

### **Kirish**

Jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu teng huquqli ta’lim olish imkoniyatining mavjudligidir. Ta’lim to’g’risidagi qonunning 5-moddasi Jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlangan. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim olish nafaqat bilim olish jarayoni, balki ularning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi uchun ham asosiy omildir. Bu borada inklyuziv ta’lim tizimi bola uchun eng samarali, ko’p qirrali, rivojlantiruvchi rolni o’ynaydi. Ta’lim to’g’risidagi qonunning 20-moddasi Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minalashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Inklyuziv ta’lim nogiron bolalarning hayotga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartiradi, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishiga ko‘maklashadi. Nogironligi bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta’limini psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlashning asosiy umumiy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;
- individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- ta’lim dasturlarini psixologik qo’llab-quvvatlash;
- adekvat o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;

- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish. Shu bilan birga, bu jarayonda turli xil qiyinchiliklar ham uchraydi. Ushbu maqolada, ayniqsa, nogironligi bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishiga inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari batafsil ko'rib chiqiladi.

### **Asosiy qism**

Inklyuziv ta'lim - bu umumta'lim (ommaviy) maktablarda sog'lom o'quvchilar bilan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni birga uyg'unlashgan tarzda o'qitish jarayonidir. Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga teng munosabatda bo'lishni ta'minlovchi, hamda alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar yaratuvchi ta'limdir. Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlashning maqsadi har xil boshlang'ich imkoniyatlariga ega bo'lgan barcha toifadagi bolalarning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Bundan tashqari:

- inklyuziv ta'lim jarayonini samarali psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash tizimini tashkil etish;
- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni moslashtirish, tuzatish va ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini ta'minlash;
- yosh avlod ongida tolerantlik munosabatlarini tarbiyalash.

### **Inklyuziv ta'limning ijobiy ta'sirlari**

Shaxsiy rivojlanishga ko'maklashish - nogiron bolalar uchun inklyuziv ta'lim o'z imkoniyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish imkon beradi. Masalan, sinfda tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali ular turli mavzularda fikr bildirishga o'rGANADI.

O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish - bolalar o'z tengdoshlari orasida bilim va qobiliyatlarini namoyon qilish orqali o'z qadrini his qiladi. Masalan, darslarda o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash va tan olinishi ularda ishonch hissini mustahkamlaydi. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalar uchun ular jamiyatning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi, bu esa psixologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Ijtimoiy moslashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish- inklyuziv ta'lim modeli ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam beradi. Masalan, guruhli topshiriqlar bajarish orqali nogiron bolalar birgalikda ishslash va fikr almashishni o'rGANADI. Jamoa bo'lib ishslash ularda boshqalarga hurmat, muomala va yordam ko'rsatish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Empatiya va bag‘rikenglikni shakllantirish - inklyuziv ta’limda ishtirok etayotgan bolalar bir-birlariga yordam berishni o‘rganadi. Bu nafaqat nogiron bolalarga, balki sog‘lom bolalarga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga hayotiy hikoyalar yoki rolli o‘yinlar orqali empatiya va hamdardlikni o‘rgatishi mumkin.

Psixologik barqarorlikni ta’minalash - bolalar o‘zlarini do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda his qilganda, ularning stress darajasi kamayadi. Masalan, o‘qituvchi va tengdoshlari tomonidan rag‘batlantirish nogiron bolalarning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

#### **Inklyuziv ta’limning salbiy ta’sirlari**

Stigma va diskriminatsiya xavfi - ba’zi hollarda tengdoshlari tomonidan noto‘g‘ri munosabat nogiron bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, o‘z tengdoshlari tomonidan masxara qilish yoki ajratib qo‘yish psixologik jarohatlarga olib keladi.

O‘qituvchilarning tayyor emasligi - inklyuziv ta’lim tizimida ishlaydigan o‘qituvchilarning yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi jarayonni murakkablashtiradi. Bu esa nogiron bolalarning qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirishga to‘sinqilik qilishi mumkin.

O‘quv materiallari va texnologiyalar yetishmovchiligi - maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan resurslarning yetishmasligi inklyuziv ta’lim jarayonini samarali olib borishni qiyinlashtiradi. Masalan, brail yozuvi, audio kitoblar yoki interaktiv ta’lim vositalarining mavjud emasligi muammo tug‘diradi.

#### **Muammolarni hal qilish yo‘llari**

Maxsus pedagogik tayyorgarlikni kuchaytirish - o‘qituvchilarni nogiron bolalar bilan ishlash uchun maxsus kurslarga jalb qilish zarur. Bu ularning bilim va malakalarini oshiradi. Masalan, chet davlatlarda qo‘llanilayotgan muvaffaqiyatli o‘qituvchilik dasturlarini tatbiq etish foydali bo‘ladi.

Ijtimoiy ongni oshirish - jamiyatda nogiron bolalarga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantirish uchun targ‘ibot ishlari o‘tkazish kerak. Masalan, maktablarda maxsus darslar va seminarlar tashkil qilish orqali bu maqsadga erishish mumkin.

Maxsus resurslarni taqdim etish - ta’lim muassasalarida nogiron bolalarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi texnologiyalar va materiallar bilan ta’minalash muhimdir. Masalan, maxsus dasturlar yoki moslashtirilgan o‘quv xonalarini yaratish inklyuziv ta’limni samarali qiladi.

Inklyuziv ta’lim muhitiga qo’shilishning dastlabki bosqichida o‘qituvchilar bilan treninglar o’tkazish kerak, unda barcha ishtirokchilar o‘z qo’rquvlari, umidlari va noto‘g‘ri tushunchalarini erkin ifoda etishlari mumkin. Trening davomida o‘qituvchilarga turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar haqida tushunarli ma’lumotlar, hissiy sohaning tipik xususiyatlari va bunday bolalarning xattiharakatlari tavsifi haqida tushuntirish. Psixologik nuqtai nazardan, maktab o‘qituvchilari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan xotirjam va etarli darajada muloqot qilishga harakat qilishlari, boshqa bolalar oldida ularning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilishlari juda muhim, bu etarli darajada sabr-toqat va noziklikni talab qiladi. Ijtimoiy psixologik yordamda psixologik-pedagogik testlar olinadi. Ommaviy maktabda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bu ijtimoiy moslashuv - turli xil kommunikativ o‘yinlar bilan darsdan tashqari dars davomida bolalarni ta’limga jalb qilishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun tuzatish va rivojlantiruvchi sinflarda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

1. O‘zingiz va boshqa bolalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlash.
2. Aloida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga o‘xshamaydigan bolalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni aniqlash.
3. “Tolerantlik” tushunchasi bilan tanishish.
4. Jamiyatimiz ishtirokchilari orasida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisabatan bag‘rikenglik va murosasizlik ko‘rinishlarini muhokama qilish.

Maktab psixologi inklyuziv sinfdagi har bir o‘quvchining psixologik-pedagogik tavsifi bilan tanishadi;

- ularning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi;

- inklyuziv sinf o‘quvchilari bilan yalpi psixologik o‘yinlar va mashg‘ulotlar olib boradi; - sinfdagi ota-onalar bilan sinf jamoasida do‘stona munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o‘z farzandi bilan olib borilishi zarur bo‘lgan ishlar yuzasidan maslahatlar odib boradi;

- o‘quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o‘rganish va ularni tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berish. Ta’lim muassasasining psixologik xizmati oldida yana bir muhim vazifa – alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan farzandi mavjud oilalar va ularga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan oddiy bolalar va umumta’lim maktab o‘quvchilarining

ota-onalari bilan ishslash. Bugungi o‘quvchilar bir necha yildan so‘ng jamiyatimizni tashkil qiladi, shuning uchun ular yoshligidan nogironligi bo‘lgan bolalarni tushunib, ular bilan birga yashashni o‘rganishlari juda muhimdir.

### **Xulosa**

Inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashda, ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu model bolalarga o‘z qobiliyatlarini ochish, jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllanish imkonini beradi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim bolalarda o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlash, empatiya va bag‘rikenglik kabi muhim qadriyatlarni rivojlantirish orqali ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Biroq, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim shartlar mavjud. Birinchidan, o‘qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish va ularni nogiron bolalar bilan ishslash uchun zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlash zarur. Ikkinchidan, nogiron bolalar uchun maxsus moslashtirilgan o‘quv materiallari, texnologiyalar va infratuzilmani shakllantirish lozim. Uchinchi tomonidan, jamiyatda nogiron bolalarga nisbatan hurmat va bag‘rikenglikni oshirish uchun ma’rifiy tadbirlar va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish talab etiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi zarur. Bu esa nafaqat nogiron bolalar, balki ularning oila a’zolari uchun ham ruhiy va ijtimoiy yordamni ta’minlaydi. Inklyuzivlik sohasidagi ijtimoiy-psixologik ish faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- inklyuziv ta’limning yangi dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish;
- ota-onalar klubini tashkil etish;
- ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini jalb qilish.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim jamiyatdagi barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan muhim tamoyildir. Ushbu ta’lim modeli nafaqat nogiron bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun katta ijtimoiy va iqtisodiy foyda keltiradi. Zero, har bir bolaning huquqlari hurmat qilinadigan va ularning iste’dodlari rivojlanadigan jamiyat haqiqatan ham taraqqiyotga erishadi. Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli rivojlantirish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi global standartlarga moslashishi va mamlakatdagi har bir bolaning kelajagini ta’minlashi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ainscow, M. (2020). Promoting Inclusion in Schools. Routledge.
2. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: CSIE.
3. Farrell, P. (2010). Inclusive Education: Key Themes and Issues. Routledge.
4. UNESCO. (2017). Inclusive Education and the 2030 Agenda for Sustainable Development.
5. Slee, R. (2018). Inclusive Education: From Policy to Practice. Springer.
6. S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish" metodik tavsiya Toshkent-2022

---

# **Research Science and Innovation House**